

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVSHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

DJALILOV RAHMONKUL HAMIDOVICH

**QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I HISOBI VA SOLIQQA TORTISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Огловления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Djalilov Rahmonkul Hamidovich

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirish.....3

Джалилов Рахмонкул Хамидович

Совершенствование учёта и налогообложения налога на добавленную
СТОИМОСТЬ23

Djalilov Rakhmonkul Hamidovich

Improving the accounting and taxation of value added tax45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVSHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

DJALILOV RAHMONKUL HAMIDOVICH

**QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I HISOBI VA SOLIQQA TORTISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3019 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qurbonov Ziyat Niyazovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Abdugafur Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Giyasov Sarvar A'zamovich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «29» 02 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14⁰⁰ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel: (99871) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «9» 02 kuni tarqatildi.

(2024-yil «9» 02 dagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.P. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global moliyaviy beqarorlik sharoitida davlat budjeti daromadlari shakllanishining muhim manbalaridan biri sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘ining ahamiyati oshib bormoqda. “Xalqaro amaliyotda 170 ta mamlakatlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini joriy etgan bo‘lib, jami soliq tushumlarining o‘rtacha 20,2 foizini tashkil etadi. ...Ko‘pgina mamlakatlarda bilvosita soliqlarning hissasi, xususan, qo‘shilgan qiymat solig‘ining (QQS) ulushi katta hisoblanadi. Davlat budjet daromadlarini shakllantirishga qaratilgan soliq tizimining rivojlanish tarixida qo‘shilgan qiymat solig‘ini joriy etilishi XX asr ikkinchi yarmida ushbu yo‘nalishdagi eng muhim kashfiyotlardan biri hisoblanadi. ...Kompaniyalar soliqlarni buxgalteriya hisobida aks etirishda MHXS foydalanishadi”¹. Bu esa qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobi va ma‘muriyatchiligini takomillashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Jahon mamlakatlari xalqaro amaliyotida qo‘shilgan qiymat solig‘ining buxgalteriya hisobini va ma‘muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish, soliq imtiyozlari buxgalteriya hisobi uslubiyotini takomillashtirish, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash mexanizmini raqamlashtirish, ushbu soliq bo‘yicha kameral soliq tekshiruvi va soliq auditi samaradorligini tahlil qilish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va soliq tizimini xalqaro standartlar hamda tajribalar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida Moliya vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 1-oktabrga qadar soliq hisoboti shaklini qayta ko‘rib chiqish va uning MHXS bo‘yicha tayyorlangan moliyaviy hisobotga moslashtirilgan shaklini ishlab chiqish”² va Soliq Kodeksning 158-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishga muvofiq, “2023-yil 1-yanvardan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirish”³ kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifani samarali amalga oshirishda qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliqlarni hisoblashda soliq va buxgalteriya hisobi ma‘lumotlarining o‘zaro mos kelishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar

¹ Consumption Tax Trends 2022. VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends. VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends OECD ... Rates, Trends and Policy Issues, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/152def2d-en>; James K. “Exploring the Origin and Global Rise of VAT,” Manash University, Melbourne. 2011; <https://www.accountingseed.com/resource/blog/what-are-international-accounting-standards-ias/4.05.2023>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

³ O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda «Soliq va budjet siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-812-son Qonuni.

to'g'risida", 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son "O'zbekiston Respublikasining «2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qo'shilgan qiymat solig'ining buxgalteriya hisobini va ma'muriyatchiligini takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar K.James L.I.Goncharenko, I.A.Mayburov, A.A.Abakulova, M.M.Shadurskaya, V.A.Krasnitskiy, N.Z.Zotikov, E.V.Smirnova va boshqa olimlarning izlanishlarida uchraydi⁴.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan O.O.Olimjonov, E.F.Gadoev, Sh.A.Toshmatov, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov⁵ va boshqa olimlarning ilmiy va o'quv-uslubiy ishlarida o'z aksini topgan. Z.N.Qurbonov, K.R.Hotamov, N.B.Ashurova, K.M.Misirov, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, S.K.Xudoykulov, F.I.Isayev, U.X.Normurzayev⁶, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, A.S.Jo'rayev,

⁴ James K. "Exploring the Origin and Global Rise of VAT," Manash University, Melbourne. 2011. Гончаренко, Л. И. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник и практикум для академического бакалавриата / отв. ред. Л. И. Гончаренко. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 524 с. Майбуров И. А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям «Экономика» и «Менеджмент», специальностям «Экономическая безопасность», «Таможенное дело» / И. А. Майбуров [и др.]; под ред. И. А. Майбура. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. — 503 с. Абакулова А. А. Шадурская М. М., Налоговое администрирование в условиях цифровизации экономики. Финансы и кредит. 2022. В.А.Красницкий Налоговое администрирование. <https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogovoe-administrirovaniye>. 25.02.2023. Зотиков Н.З. Налоговое администрирование, его влияние на налоговую нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022;(1 (35)):26-37. <https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37>. Смирнова Е.В. Совершенствование налогового администрирования НДС в интересах государства и налогоплательщиков. ЖУРНАЛ. Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. №1 2018.

⁵ O.O.Olimjonov Adolatli soliq-mamlakat tayanchi. Soliq to'lovchi jurnali, 2006. № 6; E.F.Gadoev va b. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. Toshkent: «NORMA», 2011. 327 b.; Sh.A.Toshmatov Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya. Toshkent.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004. -160 b.; T.S.Malikov, N.H.Xaydarov Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: «Iqtisod-moliya», 2009. -556 b.;

⁶ Z.N.Qurbonov «Soliq hisobi va auditing nazariy va metodologik asoslari». Dis.i.f.d. - Toshkent.: BMA, 2008. 272 b.; K.R.Hotamov "Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish" dissertatsiya i.f.d., T.: 2016 y.136 b.; N.B.Ashurova Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. (DS) Dissertatsiyasi. T: 2018 yil. 247 b.; Misirov K.M. "Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent.2010; J.J.Urmonov Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya/ T.: "Iqtisod-Moliya", 2018 y. 240 b.; I.M.Niyazmetov "Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot" Monografiya.-Toshkent: "Moliya", 2016. 192 b.; Xudoykulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. T., 2019. 77 b.; F.I.Isayev Soliq tahlili metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish

N.R.Qo‘ziyeva, K.Axmedjanov, B.A.Hasanov, A.A.Xashimov, A.X.Pardayev, Z.A.Pardayeva, K.B.O‘razov, N.B.Abdusalomova, U.V.Gafurov, M.B.Kalonov, S.N.Tashnazarov, A.B.Abdullayev⁷ ilmiy ishlarida soliq hisobi, auditi, tahlilining nazariy va metodologik asoslaridagi ayrim jihatlar o‘rganilgan. Mazkur ilmiy ishlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobi va soliqqa tortish kompleks tarzda o‘rganilmagan. Jumladan, K.R.Hotamovning ilmiy ishida bilvosita soliqlarning buxgalteriya hisobi, tahlil va soliqqa tortish muammolarini o‘rgangan⁸. A.B.Abdullayev ilmiy ishlarida soliq to‘lovlari hisobi va tahlilining ayrim jihatlarini yoritgan⁹.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №8 «Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy siyosat va hisob tizimini takomillashtirish yo‘llari» mavzusidagi (2021–2022-yy.) davlat ilmiy-amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qo‘shilgan qiymat solig‘ining ilmiy, nazariy, konseptual asoslarini o‘rganish asosida soliq siyosatidagi o‘rnini ochib berish;

qo‘shilgan qiymat solig‘ini ma‘muriyatchiligining joriy holatini tahlil qilish va xorijning ilg‘or tajribalarini aniqlash;

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida qo‘shilgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobini ilmiy jihatdan tavsiflash;

qo‘shilgan qiymat solig‘ini kameral soliq tekshiruvi va soliq auditi metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish;

uchun yozilgan dissertatsiya. 2022. 242 b; U.X.Normurzayev Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi. 2022. 247 bet.

⁷ Ibragimov A.K., Rizayev N.K. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya. 2008.–465 b.; Jo‘rayev A.S. va boshqalar. Soliq nazariyasi, o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2019.-376 b.; Kuziyeva N.R. Sovershenstvovaniye zakonodatelnix osnov sozdaniya deyatelnosti i nalogovix rejimov predpriyatiy eksportyorov v svobodnix ekonomicheskix zonax Uzbekistana. Axmedjanov K. Reformi auditoriskoy deyatelnosti v Uzbekistane.2020.; Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi, Sano-standart, T., 2014. - 336 bet.; Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. – T.: Yangi nashr, 2011.; Pardayev A.X, Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – T.: “TAFAKKUR” nashriyoti, 2014-396 b.; O‘razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. – T.: Fan, 2005. - 236 b.; Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlarini. // Iqtisod va moliya, 2016, 2-son.; Abdusalomova N.B. Metallurgiya sanoati korxonalarida ichki nazorat uslubiyatini takomillashtirish. “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali, 2020 yil, 1-son.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoreferati. – T., 2017. - 96 b.; Kalonov M.B. Daramodlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili uslubiyoti. – T.: Akademnashr, 2019. – 352 b.; Tashnazarov S.N. Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. // Ekonomika i sotsium. 5(84)-son, 2021.www.iupr.ru.; Abdullayev A.B. 08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan “Soliq to‘lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishi avtoreferati. – Toshkent, 2020.

⁸ Hotamov K.R. Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish. Dissertatsiya i.f.d., – T., 2016.136 b.

⁹ Abdullayev A.B. 08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan “Soliq to‘lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishi avtoreferati. – Toshkent, 2020.

qo‘shilgan qiymat solig‘i mexanizmi va buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘ining buxgalteriya hisobi va soliq to‘lovchi korxonalar, jumladan “Qashqadaryo parmalash ishlari” AJ faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib qo‘shilgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni ma‘muriyatchiligi va mexanizmining uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik kuzatuv va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobi ma‘lumotlarning ishonchligini ta‘minlash, soliq nazoratini kuchaytirish maqsadida 6420 - “Byudjetga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovlari bo‘yicha qarz” schyoti bo‘yicha 6420 - “12% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS”, 6421 - “0% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS” ishchi schyotlarni ochish va schyotlar rejasiga kiritish asoslangan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan bog‘liq soliq ma‘murchiligini takomillashtirish maqsadida elektron hisobvaraqa-fakturalarni amaliyotga joriy etish orqali hisobvaraqa-fakturalarning shakllari hamda ularni to‘ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibini soddalashtirish taklifi asoslangan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organi soliq summasining o‘rnini to‘liq yoki qisman qoplash to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur soliq summasini qaytarish muddatini soliq organlari xabardor qilingan sanadan e‘tiboran ikki barobarga qisqartirish orqali soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘larini ko‘paytirish va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha budjetga tushum hajmini oshirish asoslangan;

maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda beriladigan soliq imtiyozlarini hisobga olish uchun alohida balans schyotini ochish va hisobini yuritish maqsadida 8850 - “Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” schyotini, hisob siyosati bilan tasdiqlangan ishchi schyotlar rejasiga 8840 - “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” va 8850 - “Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” ishchi schyotlarni har bir soliq turi bo‘yicha kiritish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olishda turli sabablarga ko‘ra QQS guvohnomasining vaqtinchalik to‘xtatilganligi natijasida yuzaga keladigan vaqtinchalik farqlarni hisobda aks ettirilmaslik holatlarini bartaraf etish maqsadida 0970 - “Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i (uzoq muddatli qismi)”, 3270 - “Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i (joriy qismi)” schyotlarini ochish tavsiya qilingan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e‘tirof etish bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 237-moddasida o‘z aksini topgan;

qo‘shilgan qiymat solig‘ining kameral soliq tekshiruvi va auditini o‘tkazish tartibi takomillashtirilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining 2023-yil uchun hisob siyosatini MHXS (IAS) 8–“Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o‘zgarishlar va xatolar”ga mos holda shakllantirish maqsadida soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatini alohida bo‘lim sifatida kiritish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, Bojxona qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, “Qashqadaryo parmalash ishlari” AJ tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan nazariy-uslubiy xulosa va takliflardan qo‘shilgan qiymat solig‘ining buxgalteriya hisobini va ma‘muriyatchiligini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsifdagi taklif va amaliy tavsiyalardan Respublikada xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar tomonidan to‘lanuvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobini, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqiladigan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar asosida:

qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobi ma‘lumotlarning ishonchligini ta‘minlash, soliq nazoratini kuchaytirish maqsadida 6420 - “Budjetga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovlari bo‘yicha qarz” schyoti bo‘yicha 6420 - “12% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS”, 6421 - “0% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS” ishchi schyotlarni ochish va schyotlar rejasiga kiritish taklifi “Qashqadaryo parmalash ishlari” AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“Qashqadaryo parmalash ishlari” AJning 2023-yil 3-maydagi 350-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq imtiyoz davri tugagandan keyin ishlatilmasdan qolgan summaning doimiy nazoratda bo‘lishini ta‘minlash imkoni yaratilgan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan bog‘liq soliq ma‘murchiligini takomillashtirish maqsadida elektron hisobvaraq-fakturani amaliyotga joriy etish orqali hisobvaraq-fakturalarning shakllari hamda ularni to‘ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibini soddalashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi “Qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog‘liq soliq ma‘murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

489-son qarori bilan tasdiqlangan “Hisobvaraƒ-fakturalarning shakllari hamda ularni to‘ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to‘g‘risida Nizom”da o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 18-apreldagi 15-41992-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo‘shilgan qiymat solig‘ining bazasini kengaytirish va xufyona iqtisodiyot darajasini pasaytirish, budjetga qo‘shimcha soliq tushumini ta‘minlash imkoni yaratilgan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organi soliq summasining o‘rnini to‘liq yoki qisman qoplash to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur soliq summasini qaytarish muddatini soliq organlari xabardor qilingan sanadan e‘tiboran ikki barobarga qisqartirish orqali soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘larini ko‘paytirish va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha budjetga tushum hajmini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 274-moddasida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 18-apreldagi 15-41992-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘lari ko‘paytirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha budjetga qo‘shimcha tushum tushishini ta‘minlash imkonini yaratgan;

maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda beriladigan soliq imtiyozlarini hisobga olish uchun alohida balans schyotini ochish va hisobini yuritish maqsadida 8850 - “Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” schyotini, hisob siyosati bilan tasdiqlangan ishchi schyotlar rejasiga 8840 - “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” va 8850 - “Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” ishchi schyotlarni har bir soliq turi bo‘yicha kiritish taklifi “Qashqadaryo parralash ishlari” AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“Qashqadaryo parralash ishlari” Ajning 2023-yil 3-mayda 350-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari va maqsadsiz beriladigan soliq imtiyozlarining shakllanishi va ularning ishlatilishi ustidan nazoratni kuchaytirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va bu borada ilmiy tadqiqot olib borish zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi bayon qilingan, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligi va hisobining nazariy asoslari”** nomli 1-bobida O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq siyosati va uning qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmiga ta'siri, qo'shilgan qiymat solig'ining nazariy masalalari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish sharoitida qo'shilgan qiymat solig'i buxgalteriya hisobining nazariy asoslari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlari va mamlakatimizning zamonaviy soliq tizimida muhim o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) egallaydi, uning afzalligi muhim fiskal salohiyatdir. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarida qo'shilgan qiymat solig'idan bo'yn tovlashning oldini olishning eng yaxshi amaliyoti bugungi kunda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish hisoblanadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish, soliqqa tortish ma'muriyatchiligini raqamlashtirish bevosita barcha turdagi soliqlar, shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli Farmonining qabul qilinishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tishning strategiyasini belgilab berdi¹⁰. “Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasi bevosita soliqqa tortish mexanizmini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

2021-yil holatiga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1,6 foizni, AQSHda – 9,3 foizni, Xitoyda – 3,8 foizni, Hindistonda – 8 foizni tashkil etdi. 2025 yilga borib jahon raqamli iqtisodiyoti 23 trillion dollarga yetadi, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 24,3 foizgacha oshadi¹¹.

Soliq ma'muriyatchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda “onlayn nazorat kassa mashinalari”, “Elektron hisobvara-q-fakturalar” va boshqa markazlashgan tizimlar orqali shakllangan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida bozor konyunkturasini o'rganish, qo'shilgan qiymat solig'i zanjirini nazoratga olish, tovar va xizmatlarning iqtisodiyotda

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079 sonli Farmoni.

¹¹ Ахмедов Б.Состояние цифровой экономики в Узбекистане и перспективы ее развития. <https://infocom.uz/ru/%D1%81%>. 8.04.2023.

harakatlanishini monitoring qilish, soliq to'lovchi shaxsiy kabinetining foydalanish doirasini kengaytirish lozim.

Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish soliq turlari ma'muriyatchiligi va mexanizmiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash, hisoblash va budjetga to'lash mexanizmini raqamli transformatsiya etishni talab etadi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi yildan yilga kamayishiga qaramasdan, hali ham sezilarli (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlari manbaida 2020-2022-yillarda qo'shilgan qiymat solig'ining o'sish dinamikasi, mlrd.so'mda¹²


Ko'rsatkichlar	2020 yil	jamiga nisbatan % da	2021 yil	jamiga nisbatan % da	2022 yil	jamiga nisbatan % da
Davlat budjeti daromadlari	132938		164681		202 043	
Bilvosita soliqlar – jami	46 428	34,9	56 292	34,2	71 390	35,3
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)	31 177	23,5	38 439	23,3	52 189	25,8
Aksiz solig'i	11 697	8,8	13 088	7,9	13 455	6,7
Bojxona boji	3 554	2,7	4 765	2,9	5 746	2,8
Bevosita soliqlar – jami	45 207	34,0	58 930	35,8	64 447	31,9
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	21 257	16,0	23 036	14,0	23 913	11,8
Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar	20 046	15,1	26 423	16,0	42 293	20,9

1-jadval ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, 2022-yil holatiga, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha tushumlar 2022-yilda 52,2 trln.so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 13,8 trln so'mga yoki 35,8%ga oshdi. 2022-yilda QQS bo'yicha davlat budjetiga soliq organlari tomonidan 32,8 trln so'm (2021-yilga nisbatan 28,3%ga ko'proq), bojxona organlari tomonidan 38,7 trln so'm (2021-yilga nisbatan 41,8%ga ko'proq) undirildi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'ining budjet tushumlaridagi ulushi yuqori bo'lib, uning ma'muriyatchiligini raqamlashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagilarga asoslangan holda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini raqamlashtirishning modeli ishlab chiqildi (1-rasm).

¹² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari - https://old.mf.uz/media/file_uz/state-budget/2021/prevd_doxodi_2021_uz.pdf



1-rasm. QQS ma'muriyatchiligini raqamlashtirish modeli¹³

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foiz va 0 foiz miqdorida belgilangan. Bu dunyo mamlakatlaridagi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdir (2-jadval).

2-jadval

Jahon mamlakatlarida 2023 yil uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi¹⁴

Soliq reytingdagi o'rni	Mamlakat nomi	Soliq stavkasi foizda
1	Vengriya	27
2	Shvetsiya	25
3	Gretsiya	24
4	Portugalya	23
5	Italiya	22
6	Ispaniya	21
7	Fransiya, Rossiya	20
8	Ruminiya	19
9	Malta	18
10	O'zbekiston Respublikasi	12
11	Qozoqiston	12
12	Yaponiya	8
13	Tayland	7
14	Malayziya	5
15	Djersi oroli	3
16	AQSH	0

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha eng yuqori soliq stavkasi Vengriyada 27 foiz, Shvetsiyada 25%, Gretsiyada 24 foiz ekan. Ushbu soliq bo'yicha past stavkalar Djersi oroli 3 foiz, Malayziyada 5%, Taylandda 7%, Yaponiyada esa 8 foiz etib belgilangan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda 12 foizli stavka o'rtacha ko'rsatkich ekan.

¹³ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁴ НДС в странах мира. 16.03.2023 <https://visasam.ru/emigration/vybor/nds-v-mire.html#i-5> 10.04.2023.

Xitoyda 2023-yilda QQSning asosiy stavkasi 16 foizdan 13 foizga tushirilgan. Pasaytirilgan soliq stavkalari 9%, 6% va 0% ga teng.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qiladigan bo'lsak, qo'shilgan qiymat solig'ining nazariy masalalarida olimlarimizda yagona fikr yo'qligi ma'lum bo'ldi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini asoslangan holda belgilash muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ining amaldagi stavkasini oshirish yoki pasaytirish iqtisodiyotning o'sishiga ta'sir etishini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Dissertatsiya ishining **“Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini takomillashtirish”** deb nomlangan 2-bobida xo'jalik yurituvchi subyektlarning MHXS asosidagi hisob siyosatida qo'shilgan qiymat solig'ining hisobi, qo'shilgan qiymat solig'i hisobini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar hisobini takomillashtirish masalalar ilmiy jihatdan yoritilgan.

Xalqaro amaliyotda kompaniyalar buxgalteriya hisobini tashkil etish maqsadida hisob siyosati shakllantiriladi. Shunga asosan hisobot yilida buxgalteriya hisobi yuritiladi va moliyaviy hisobot tuziladi. Respublikamizda buxgalteriya hisobi bo'yicha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisobni yuritishni tashkil qilish maqsadida “hisob siyosati”ni ishlab chiqish va tasdiqlash ko'zda tutilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini hisob siyosatda ochib berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi kontragentining QQS guvohnomasi holati;
- 12 foiz stavkada qo'shilgan qiymat solig'i hisobini alohida yuritish;
- 0 foiz stavkada qo'shilgan qiymat solig'i hisobini alohida yuritish;
- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarining hisobini yuritish tartibi;
- qo'shilgan qiymat solig'i hisobini “1C: Buxgalteriya 8 dlya Uzbekistan” dasturiy mahsulot talablariga moslashtirish;
- elektron hisobvaraqa-faktura aylanish tizimi va boshqalar.

MHXS bo'yicha hisobot yuritishga o'tgan yirik soliq to'lovchilar hisob siyosatida buxgalteriya hisobi uchun BHXS (IAS) 8, soliq hisobi uchun – BHXS (IAS) 8 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 77-moddasini konseptual tarzda hisobga olishlari lozim. Yuqoridagilarga asosan xulosa qiladigan bo'lsak, soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini MHXS lari talablari asosida yuritish maqsadga muvofiq. Soliq imtiyozlarining hisobi BHXS (IAS) 8–“Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o'zgarishlar va xatolar”, BHXS (IAS)–12 “Foydadan soliqlar” standartlar va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli normalaridan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

“Qashqadaryo parmalash ishlari” AJning 2023-yil uchun hisob siyosatini BHXS (IAS) 8–“Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o'zgarishlar va xatolar”ga mos holda shakllantirish maqsadida, soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatini alohida bo'lim sifatida kiritish taklif qilindi. Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati bo'limida AJ tomonidan to'lanadigan soliqlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishning tanlangan usullari kiritildi. Natijada, AJning hisob siyosati moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirildi va soliqlarni hisobga oluvchi schyotlar transformatsiya qilindi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobini tashkil etishda MHXSlarini qo‘llash mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda ijobiy ahamiyatga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobini to‘g‘ri tashkil etish va ma‘lumotlarning ishonchligini ta‘minlash maqsadida 6420 - “Budgetga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovlari bo‘yicha qarz” schyoti bo‘yicha quyidagi ishchi schyotlarni ochish va ularni 2023-yil uchun schyotlar rejasiga kiritish tavsiya qilindi:

6420 – schyot - “12% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS”;

6421 – schyot - “0% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS”.

Bu qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq hisobotlarini tuzishni osonlashtiradi va soliq nazoratini kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy – xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasini va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” nomli 21-sonli milliy standarti va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining 2005-yil 24-fevraldagi 29, 2005-25, 01-02/8-3 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik shaxslarga soliqlar bo‘jlar va majburiy to‘lovlarni budgetga to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga tegishli o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritishni taklif qilamiz.

Xalqaro amaliyotda qo‘shilgan qiymat solig‘i va soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini yuritishda bir nechta MHXSlardan foydalaniladi. Jumladan, BHXS (IAS) 2 - “Tovar–moddiy zaxiralalar”, MHXS (IFRS) 5 - “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar”, BHXS (IAS) 7 - “Pul mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi hisobot”, BHXS (IAS) 8 - “Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o‘zgarishlar va xatolar”, BHXS (IAS) - 12 “Foydadan soliqlar”, MHXS (IFRS) 13 - “Haqqoniy qiymatni baholash”, BHXS (IAS) 16–“Mulk (yer), bino, mashina va asbob–uskunalar”, BHXS (IAS) 17 - “Ijara”, BHXS (IAS) 19 - “Xodimlarning daromadlari”, BHXS (IAS) 28 - “Qaram tadbirkorlik subyektlaridagi va qo‘shma korxonalaridagi investitsiyalar” kabi standartlardagi me‘yorlardan foydalangan holda tashkil etiladi.

Soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish zaruriyati nimadan kelib shiqdi. Bu savolga javob berish maqsadida ba‘zi ma‘lumotlarni keltirib o‘tamiz (3-jadval). 3-jadvalda 2018-2022-yillarda soliq turlari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari bo‘yicha tahlil keltirilgan bo‘lib, 2018-yilda soliqlar bo‘yicha jami 59 792 ta tashkilotga 22707,56 mlrd so‘m, 2019-yilda 68113 ta tashkilotga 29 136,0 mlrd so‘m, 2020-yilda 93871 ta tashkilotga 31 065,6 mlrd so‘m, 2021-yilda 109363 ta tashkilotga 43 479,3 mlrd so‘m va nihoyat, 2022-yilda 195884 ta tashkilotga 72 963,7 mlrd so‘m soliq imtiyozlari qo‘llanilgan.

Alohida soliq turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, 2018-yilda QQS bo‘yicha berilgan imtiyozlar summasi 2322 ta tashkilotga nisbatan 14989,50 mlrd so‘mni tashkil etib, eng katta imtiyoz berilgan soliq turiga aylantirilganligini ko‘rish mumkin. 2022-yilda bu summa ushbu soliq turi bo‘yicha 28 214 ta tashkilotga nisbatan 64 107,9 mlrd so‘mni tashkil etib yana eng katta soliq imtiyoziga ega bo‘lib turganligini ko‘rishimiz mumkin.

3-jadval

2018-2022-yillarda soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari tahlili, mlrd so'mda¹⁵

Soliq turlari	2018-yil		2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	Soni	Summasi	Soni	Summasi	Soni	Summasi	Soni	Summasi	Soni	Summasi
Jami	59 792	22707,56	68113	29 136,0	93871	31 065,6	109363	43 479,3	195884	72 963,7
QQS	2 322	14989,50	11380	23 073,8	7 031	24 643,3	15 508	36 766,3	28 214	64 107,9
Foyda solig'i	291	1 832,02	763	2 785,4	3 335	2 930,0	2 709	2 219,5	25 015	4 641,3
Yer solig'i	5 499	1 183,69	6 736	880,1	4 531	1 313,2	11 743	2 575,9	6 204	931,8
Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq	8 321	393,06	33866	789,0	44093	917,9	56 165	1 073,8	41 580	1 028,3
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7	797,97	31	469,3	673	443,7	1 376	39,1	685	12,3
Ijtimoiy soliq	30 258	495,80	3 993	340,9	6 230	346,5	11 247	386,3	52 616	1 187,4
Mol-mulk solig'i	220	897,27	382	583,2	4 813	274,0	2 195	306,1	7 809	933,0
Aylanmadan olinadigan soliq	12 530	1 325,66	10962	214,3	23165	196,9	8 420	112,3	32 921	97,2

¹⁵ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Keyingi soliq imtiyozlarining katta summasi yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan foyda solig'iga to'g'ri kelishini guvohi bo'lish mumkin. 2018-yilda foyda solig'i 291 ta tashkilotga nisbatan 1 832,02 mlrd so'm, 2022-yilda esa 25 015 ta tashkilotga nisbatan 4 641,3 mlrd so'mni tashkil etganligini kuzatilgan.

4-jadval

"Qashqadaryo parmalash ishlari" AJning 2018-2022-yillar davomida soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari tahlili, *ming so'm*¹⁶

Ko'rsatkichlar	YILLAR				
	2018	2019	2020	2021	2022
Jami daromadlar	138 711 671	118 960 514	36 491 849	38 930 804	32 686 566
Mahsulotlarni sotishdan sof tushum	90 066 611	115 640 148	32 973 006	33 405 143	32 462 494
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	48 642 060	3 320 366	3 518 843	5 525 661	224 072
Moliyaviy faoliyat daromadlari	3 000	0	0	0	0
Jami xarajatlar	135 614 778	115 533 337	32 551 897	36 451 137	30 456 538
ishlab chiqarish xarajatlari	108 805 684	103 442 338	16 639 992	22 985 404	21 304 481
davr xarajatlari	18 769 858	12 090 999	15 911 905	13 465 733	9 152 057
moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	8 039 236	0	0	0	0
Sof foyda (zarar)	1 201 528	1 801 210	1 787 213	1 331 183	1 409 254
Rentabellik	0,87	1,51	4,90	3,42	4,31
Ish haqi fondi	24 456 571	22 016 618	9 291 150	13 566 617	14 917 739
Ishchilar soni	840	991	233	224	324
Budjetga jami hisoblandi	23 909 215	23 481 245	10 287 233	10 316 407	9 555 288
QQS	8 209 325	12 976 603	4 255 684	4 252 018	3 036 858
Foyda solig'i	1 895 365	1 625 967	2 152 739	1 148 484	820 774
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 272	9 594	10 830	12 760	13 702
Mol-mulk solig'i	155 247	42 530	40 243	35 415	259 353
Yer solig'i	86 576	103 891	119 475	100 870	147 665
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2 576 057	2 317 292	1 008 416	1 463 929	1 627 311
Boshqa soliqlar	13 145	0	74 181	64 945	0
Foydalanilgan soliq imtiyozlari*	949 282	2 857 969	887 678	1 367 376	1 310 259

4-jadvalda 2018-2022-yillarda soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari bo'yicha tahlil keltirilgan bo'lib, 2018-yilda soliqlar bo'yicha jami 949 282 ming so'm, 2019-yilda 2 857 969 ming so'm, 2020-yilda 887 678 ming so'm, 2021-yilda 1 367 376 ming so'm va nihoyat, 2022-yilda 1 310 259 ming so'm miqdorida soliq imtiyozlaridan foydalanilgan. Ushbu imtiyozning asosiy qismini jismoniy shaxslar hisobiga to'g'ri keladi.

Soliq imtiyozlari muayyan maqsadga yo'naltirish sharti bilan beriladigan va

¹⁶ "Qashqadaryo parmalash ishlari" AJ 2018-2022 yillar davomidagi moliyaviy hisobot materiallari asosida tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan.

maqsadsiz beriladigan imtiyozlarga bo‘linadi. “Soliq qonunchiligiga asosan soliq imtiyozlaridan bo‘shagan mablag‘larni boshqa maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilangan maqsadda foydalanilmagan summa o‘rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda budjetga to‘liq undirib olinadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar munosabati bilan bo‘shagan hamda ushbu imtiyozlarning amal qilish muddati ichida foydalanilmagan mablag‘larning summasi imtiyozlar berilayotgan chog‘da belgilangan maqsadlarga mazkur imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan keyin bir yil mobaynida yo‘naltirilishi mumkin. Bunda ko‘rsatilgan muddatda foydalanilmagan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining Respublika budjetiga o‘tkaziladi”.

Soliq imtiyozlarini hisobi MHXSlarida 12 “Foydadan soliqlar” nomli (IAS–12 In some Taxes) standartdan foydalaniladi. Ushbu standartning 34-35-bandlarida soliq imtiyozlari buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun tan olinishi kerak. Soliq imtiyozlarining tan olinishi standartda quyidagisha aks ettirilgan: Muddati uzaytirilgan soliq aktivi foydalanilmagan soliq zararlari va foydalanilmagan soliq imtiyozlarini kelgusi davrlarga o‘tkazish bo‘yicha tan olinishi kerak, bunda u foydalanilmagan soliq zararlari va foydalanilmagan soliq imtiyozlaridan kelajakda foydalanish imkonini beradigan yetarlicha kelgusi soliq solinadigan foydaga ega bo‘lishi ehtimoli mavjud bo‘lgan darajada tan olinishi kerak.

